MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

Olimpiada topshiriqlari (III bosqichi)
DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI 9

1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi

1. Protsessual huquqlar sudlarning faoliyatini tartibga soladi va qaysi tarmoqqa oid huquqiy masalalarni ko‘rayotganligiga qarab nechta turga bo‘linadi?
A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

2. Mamlakatimizning jahon arenasidagi raqobatbardoshligini ta’minlab beradigan asosiy omil qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) Inson kapitali B) Iqtisodiy omillar C) Yer osti va usti boyliklari D) Aholi soni

3. Ibn Sino ilmiy-adabiy merosini 450 dan ortiq asarlar tashkil etadi. Shulardan qancha asari bizgacha yetib kelgan?
A) 50 B) 160 C) 176 D) 210

4. O‘zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari qachon tashkil topgan?
A) Mil. avv. VII–VI asrlarda B) Mil. avv. X–IX asrlarda
C) Mil. avv. III–II asrlarda D) Mil. avv. XIII-XI asrlarda

5. Boshsiz mamlakatni kim jonsiz tanaga o‘xshatgan?
A) Abu Nasr Forobiy B) Amir Temur C) Ali ibn Abu Tolib D) Umar ibn Xattob

6. O‘z harakatlari asosida huquqlarni amalga oshirish va yuridik majburiyatlarni bajara olish imkoniyati nima deyiladi?
A) Huquqiy munosabat B) Huquq layoqati C) Muomala layoqati D) Huquq subyekti

7. Abu Nasr Forobiyning aytishicha, fozil davlat rahbari necha xil xislatlarni o‘zida aks ettirgan bo‘lishi kerak?
A) 4 xil B) 10 xil C) 11 xil D) 12 xil

8. Inson huquqlari xalqaro huquqning obyekti sifatida qachon rasman tan olindi?
A) 1946-yil B) 1948-yil C) 1991-yil D) 2001-yil

9. Monarxiya qanday shakllarda bo‘ladi?
A) Mutlaq va cheklanmagan B) Mutlaq va cheklangan
C) Cheklangan va konstitutsiyaviy D) Cheklangan yoki parlamentar

10. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari to‘rt bosqichda amalga oshiriladi. “Temurbekning vorislari”, “O‘zbekistonning farzandlari botir bo‘lur” kabi harbiy sport musobaqalari qaysi bosqichga xosligini aniqlang.
A) birinchi B) uchinchi C) ikkinchi D) to‘rtinchi

2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

11. Oliy Majlis ishini tashkiliy shakli qanday nomlanadi?
A) Sessiya B) Kengash C) Semester D) Qurultoy

12. Ayrim shaxslar o‘rtasida vujudga keladigan va huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar fanda nima deyiladi?
A) Huquq manbayi B) Huquqiy odat C) Yuridik pretsedent D) Huquqiy munosabatlar

13. Quyida berilgan javoblar orasidan federativ davlatga xos belgini aniqlang.
A) oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federal davlat idoralariga tegishli bo‘ladi;
B) mustaqil davlatlar muayyan maqsadlarga erishish uchun birlashadi;
C) barcha ma’muriy-hududiy birliklar uchun umumiy bo‘lgan soliq va kredit siyosatining mavjudligi;
D) davlat tarkibiy qismlar, ya’ni ma’muriy-hududiy tuzilmalarga ega bo‘lmaydi;

14. “Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risida”gi Konvensiya qabul qilingan sanani toping.

A) 1973-yil 26-iyun B) 2018-yil 23-fevral C) 1999-yil 17-iyun D) 1991-yil 8-dekabr

15. Fuqaro va fuqarolik haqidagi tasavvurlar paydo bo‘lgan davrlardan boshlab fuqarolarning umumiy uyushmasi sifatida qanday tushuncha yuzaga kelgan?
A) Jamiyat B) Fuqarolik C) Demokratiya D) Respublika

16. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim elementi nima hisoblanadi?
A) Huquqning ustuvorligi B) Iqtisodning siyosatdan ustunligi
C) Ta’lim-tarbiyaning muhimligi D) Ijtimoiy himoya

17. Huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari, ya’ni huquq va majburiyat egalari qanday ataladi?
A) Huquqiy munosabatlarning obyekti B) Huquqiy munosabatlarning predmeti
C) Huquqiy munosabatlarning manbasi D) Huquqiy munosabatlarning subyekti

18. Jinoiy jazo turlari Jinoyat kodeksining nechanchi moddasida belgilangan?
A) 43-modda B) 55-modda C) 67-modda D) 71-modda

19. Necha yoshga to‘lmagan erkaklarga ozodlikdan mahrum qilish jazosini umumiy yoki kuchaytirilgan tartibli tarbiya koloniyalarida o‘tash tayinlanadi?
A) 21 yoshga B) 20 yoshga C) 25 yoshga D) 18 yoshga

20. Davlatning huquqqa bo‘lgan munosabatiga qarab qanday turlarga ajratish mumkin?
A) etatik va huquqiy B) respublika va monarxiya C) unitar va federativ D) huquqiy, oraliq, avtoritar

21. Dastlabki bosqichda davlat boshqaruvi qanday usulga asoslangan?
A) Majburlash usuliga B) Himoya qilish usuliga
C) Jamoa bo‘lib ishlash usuliga D) Demokrativ tartibda

22. “Fozil davlat uning aholisi o‘zaro yordam berishga, insonparvarlikka, insoniy mehr-oqibatga, uning eng oliy boylik ekanini payqab olishga, yaxshilashga asoslanish kerak”. Bu so‘zlar kimga tegishli?
A) Abu Bakr Xorazmiy B) Amir Temur C) Abu Ali Ibn Sino D) Abu Nasr Forobiy

23. Huquq normasining asosiy vazifasi – …
A) siyosiy tizim izdan chiqqanda tartibga soluvchivazifani bajaradi
B) iqtisodiy munosabatlarni yaxlit tizimga keltirish
C) ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish D) siyosiy ongni rivojlantiruvchi eng asosiy element

24. Huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishga yordamlashadigan yo‘llari, usullari, vositalarining yig‘indisi nima deyiladi?
A) Huquqiy ongning yuksalishi B) Huquqiy tartibga solish (boshqarish)
C) Huquq funksiyalarining namoyon bo‘lishi D) Huquq tizimining amalga oshirilishi

25. Qaysi huquqiy norma elementida xulq-atvor qoidalarining o‘zi ifodalanib, huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari belgilab beriladi?
A) Dispozitsiya B) Sanksiya C) Gipoteza D) Norma

3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi

26. Davlat boshqaruvi jihatdan parlamentar respublika bo‘lgan davlatlarni aniqlang.
1. Italiya; 2. Germaniya; 3. Portugaliya; 4. Gretsiya; 5. Braziliya; 6. Irlandiya; 7. Meksika; 8. Hindiston.
A) 2, 3, 4, 5, 6, 7 B) 1, 2, 3, 4, 6, 8 C) 2, 3, 4, 6, 7, 8 D) 1, 3, 5, 6, 7, 8

27. Davlat funksiyalarini to‘g‘ri tasniflang.
1) Faoliyat ko‘rsatish makoni bo‘yicha; 2) Faoliyat ko‘rsatish muddati bo‘yicha;
3) Ijtimoiy jihatdan muhimligi bo‘yicha; 4) Amalga oshirishning huquqiy shakli bo‘yicha.
a) doimiy; b) asosiy; c) ichki; d) huquqni ijod qilish; e) vaqtinchalik; f) tashqi; g) asosiy bo‘lmagan; h) huquqni ijro qilish
A) 1-c, f, 2-a, e, 3-b, g, 4-d, h
B) 1-a, f, 2-c, e, 3-b, g, 4-d, h
C) 1-c, f, 2-a, e, 3-d, g, 4-g, h
D) 1-c, e, 2-a, f, 3-b, g, 4-d, h

28. Fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelish shartlari to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
1) asossiz boyib ketish natijasida; 2) qonun yo‘l qo‘yadigan asoslarda mol-mulk olish natijasida;
3) qonunga muvofiq banklarga omonat qo‘yish va ularni tasarruf etish natijasida;
4) qonuniy ravishda muayyan maqsadda yoki o‘zi xohlagan tartibda erkin foydalanish uchun berilgan mablag‘larni tasarruf etish natijasida;
5) fan, adabiyot, san’at asarlarini yaratish, ixtirolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;
6) fuqarolar va yuridik shaxslarning chetga chiqishi bilan bog‘liq vaziyatlarda;
7) boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;
8) qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan.
A) 2, 4, 6, 7, 8
B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 2, 3, 5, 6, 7
D) 1, 2, 5, 7, 8

29. Kundalik hayotimizga ta’sir ko‘rsatadigan muhim xalqaro konvensiyalarni toping.
1) Texnik va kasb ta’limi bo‘yicha; 2) Bola huquqlari to‘g‘risidagi; 3) Ishga qabul qilishning minimal yoshi to‘g‘risidagi; 4) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi; 5) Xalqaro madaniy hamkorlik tamoyillari to‘g‘risidagi; 6) Rivojlanish huquqi to‘g‘risidagi.
A) 1, 2, 3
B) 4, 5, 6
C) 1, 3, 4
D) 2, 5, 6

30. “Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni o‘rganishi zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o‘ziga foyda keltiradi”. Fikr muallifini toping.
A) Abu Ali ibn Sino
B) Amir Temur
C) Aflotun
D) Abu Nasr Forobiy

31. Davlatning ijtimoiy vazifalari qaysi javob variantida to‘g‘ri berilgan?
1) Aholining yordamga muhtoj qismini himoyalash; 2) Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish; 3) Aholini ijtimoiy ne’matlar bilan ta’minlash; 4) Qonuniylik va tartibni ta’minlash; 5) Tinchlik va millatlararo totuvlikni saqlash 6) Sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlash.
A) 1, 3, 4, 6
B) 1, 2, 3, 4, 5, 6
C) 1, 3, 6
D) 1, 2, 3, 4

32. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi 2-yo‘nalishi qanday nomlanadi?
A) xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish
B) davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish
C) qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish
D) ijtimoiy sohani rivojlantirish

33. Atamalarga mos ta’riflarni belgilang.
1. Huquqiy davlat; 2. Etatik davlat; 3. Davlatning oraliq turi; 4. Fuqarolik jamiyati
a) davlat boshqaruvi buyruq va farmoyishlarga asoslangan, fuqarolarning va tashkilotlarning erkinliklari cheklangan davlatdir.
b) huquqning hukmronligi ta’minlangan, insonning huquqlari va erkinliklari kafolatlangan, hokimyat vakolatlari bo‘lingan davlatdir.
c) komil fuqarolardan, ya’ni uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan hamda axloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.
d) ham huquqiy davlatning, ham etatik davlatning belgilarini ma’lum darajada o‘zida mujassamlagan davlat turidir.

A) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-a C) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c D) 1-d, 2-b, 3-d, 4-c

34. Notarius bo‘lish uchun qo‘yilgan talablar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.
1. 18 yoshdan kichik bo‘lmaslik; 2. Oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lish; 3. Besh yillik yuridik stajga ega bo‘lish; 4. Malaka imtihonini topshirish; 5. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lish
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 4, 5 C) 1, 2, 4, 5 D) 2, 3, 5

35. Berilgan ta’riflarni moslashtiring?
1-huquqning ustuvorligi; 2-hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi; 3-demokratiyaning rivojlanganligi va takomillashganligi; 4-yuqori darajadagi huquqiy madaniyat.
a) amaldagi qonunlarni bilish, ularni hurmat qilish va ularga rioya qilishda namoyon bo‘ladi.
b) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linadi.
c) xalq davlat boshqaruvida qatnashadi, siyosiy huquqlar va erkinliklar kafolatlanadi.
d) mamlakatdagi barcha shaxslar – fuqarolar, chet el fuqarolari, fuqaro bo‘lmagan shaxslar, mansabdorlar hammasi qonun talablariga bo‘ysunadilar.
A) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b D) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d

36. Huquqiy normalarga asoslangan va davlat majburlov normalari bilan bog‘liq bo‘lgan javobgarlik qanday javobgarlikni tashkil qiladi?
A) Ijtimoiy javobgarlik B) Ma’muriy javobgarlik C) Yuridik javobgarlik D) Moddiy javobgarlik

37. 2019-yilning 9-yanvar kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonga binoan qanday ko‘krak nishoni ta’sis etildi?
A) Huquq yuksaltiruvchisi B) Adliya a’lochisi
C) Huquqiy madaniyat targ‘ibotchisi D) Huquqiy targ‘ibot ishlari a’lochisi

38. Fuqarolik jamiyatining taraqqiy topishidagi asosiy yo‘nalishlar to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
1) Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish; 2) Ko‘ppartiyaviylik tizimini rivojlantirish; 3) Ishlab chiqarishni yuksaltirish; 4) Maqbul ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish; 5) Davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish
A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 2, 3, 4

39. Huquq tizimi tushunchasiga qaysi qatorda to‘g‘ri ta’rif berilgan?
A) bu jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilishi bilan belgilanadigan, davlat tomonidan o‘rnatilgan, baja rilishi jamiyatning barcha a’zolari uchun umummajburiy bo‘lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalardir
B) huquq normasini qaysi obyektga nisbatan ishlatish lozimligini aniqlashtirish uchun ularni turlarga ajratish mexanizmi
C) bu jamiyatdagi mavjud huquq normalarining bir butun voqelik sifatida harakatlanishi, huquq normalari va sohalarini muayyan izchillikda, o‘zaro uzviy aloqadorlikda joylanishi
D) huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishga yordamlashadigan yo‘llari, usullari, vositalarining yig‘indisidir

40. Davlat boshqaruvida vertikal boshqaruv organlarining vakolatlarini qisqartirish hisobiga gorizontal boshqaruv organlarining vakolatlarini kengaytirish davlat boshqaruvi sohasida markazlashtirishni cheklashga imkoniyat yaratadi, bunda qanday jarayonning ahamiyati katta bo‘ldi?
A) markaziy ijro etuvchi hokimiyat boshqaruv tuzilmalari va ma’muriy organlari vazifalarini jiddiy tarzda qayta ko‘rib chiqish
B) qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, xususiy mulk va jamoat tartibini muhofaza qilish
C) boshqaruv borasidagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan mahalliy (viloyat, tuman, shahar) miqyosiga o‘tkazish

D) Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgar hisoblanishi